

## Navoiy viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanva-aprel dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 548 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 535 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 604,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 525,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 078,6 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 693,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 189,5 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 651 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 645 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 689,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga ko'paydi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 467,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 86,8 % ni tashkil qildi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Navbahor tumani (154,9 %) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 487 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 480 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 139,4 mlrd. so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)